

Bugun Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlari kuni



Vatan yagonadir,
Vatan bittadir!

www.tongyulduzi.uz

2011-yil
27-iyun
N:26
(66827)

ISSN – 2010-6092

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

Bu shunday bayram

Dildora Rustamova a'lochi bo'lgan...mi?

2-bet



Sitora Rahmatova eng faol muxbirlarimizdan



Aziz o'quvchilar, mamlakatimizda har yili 27-Iyun – Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlari kuni sifatida nishonlanishini yaxshi bilasiz va har biringiz jurnalist aka-opalaringizni tabriklashga intiqsiz. Gazetamiz sizga ana shunday imkoniyatni berib, sizning nomingizdan barcha ijodkorlarni bayramlari bilan chin dildan qutlaymiz.

Siz mustaqil Vatanda ulg'ayayotgan baxtli avlod! Yaxshi bilasizki, keyingi yigirma yil ichida matbuotimiz tubdan o'zgardi, uning jahon axborot maydonida o'z mavqeiga ega bo'lishi, erkin va samarali faoliyat ko'rsatishi uchun keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi. Bundan ruhlangan ijodkorlar yanada samarali mehnat qilishga harakat qilyaptilar.

«Tong yulduzi» gazetasi xodimlari «Gulxan», «G'uncha» jurnallari hamda boshqa bolalar nashrlarida mehnat qilayotgan hamkasblari bilan birgalikda 2010-2011-o'quv yilida ham sizlar uchun astoydil mehnat qildilar. Juda ko'pchilik jurnalistlar davlat mukofotlariga sazovor bo'ldilar, turli tanlovlarda ishtirok etib, g'oliblikni qo'lga kiritdilar.

(Davomi 2-betda)

USHBU SONDA:

AXBOROT
OLAMIGA
SAYOHAT

2-3-betlar

DOVRUG'I
OLAMGA
KETSIN

5-bet

BUGUNGI
YOSHLARGA
HAVAS
QILAMAN

7-bet



OILA ARIFMETIKASI

Ustozlarning dil so'zlari

Xudoyberdi TO'XTABOYEV, O'zbekiston xalq yozuvchisi:

– Men aziz o'g'il-qizlarimga ikki gapni aytmoqchiman: yevropalik bolalar kundalik tutishadi. Boltiqbo'yi davlatlarida, Latviya, Litva va Estoniyada ijodiy safarda bo'lganimizda, bizga o'quvchilarning kundaliklarini ko'rsatishdi. Xo'sh, buning nimasi qiziq, dersiz? Sal shoshilmang. Biz o'sha kundaliklarni varaqlab ko'rdik. Bular oddiy kundalik emas ekan, balki shu orqali oila arifmetikasi o'rgatilar ekan. Qanday qilib? Masalan, o'quvchi ota-onasining qancha oylik olishini, ro'zg'orga va boshqa yumushlarga qancha mablag' sarflashini yozib borar ekan. Hatto o'ziga olib berilgan kiyim-bosh,

o'quv qurollarining narxini ham qayd etib qo'yar va shu tariqa unga iqtisodiy tarbiya berib borilar ekan. Bu juda yaxshi jihat. Bizning yoshlar ham shu yaxshi tajribani o'zlashtirishlari kerak, deb o'ylayman.

Ikkinchi jihat: bolalar sayohatga tez-tez chiqib turishadi. Masalan, estoniyalik Velo Plit degan ijodkor mening kitobimni tarjima qilib, nashr etgandan so'ng Toshkentga – biznikiga mehmonga keldi. O'shanda uning qizi o'z mablag'i hisobiga otasi bilan birga kelganini eshitib, bolalarga oila arifmetikasini o'rgatish zarur, iqtisodiy tarbiya, albatta kerak ekan, degan to'xtamga keldim.

Bayram kunida barcha bolalarning kundalik tutib, oila arifmetikasini o'rganib, katta bilim va tajriba bilan o'z baxtlarini topishlarini istab qolaman.

Qadrli bolalar!

Bugun hayotimizni axborotlarsiz tasavvur qilish qiyin. Bir paytlar Italiyada «Gazetti» nomi bilan arzimagan chaqaga sotilgan axborot vositasi – gazetalar, bugunga kelib ham mazmunan, ham shaklan yangi yo'nalishga ega bo'ldi. Ularning ko'pgina vazifasini tezkor ommaviy axborot vositalari «Internet» tarmoqlari hamda radio-televideeniye vositalari egalladi.

Endilikda bir necha soniya ichida jahonning turli burchagida sodir bo'lgan voqea yoki hodisa haqida batafsil axborotga ega bo'lishimiz mumkin.

Jahon axborot maydonida kun sayin rivojlanib, o'z mavqeiga ega bo'lib borayotgan mamlakatimiz ommaviy axborot vositalarining ham o'z o'ini va roli bor.

Bugun O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi litsenziyalashni tashkil etish boshqarmasi boshlig'i Ulug'bek Sultonov bilan birgalikda Sizga mamlakatimizdagi ommaviy axborot vositalarining faoliyati haqida so'zlab bermoqchimiz.

– Hozirgi globallashtirish zamonida ommaviy axborot vositalariga talab va ehtiyoj yanada ko'proq sezilmoqda. Tezkor taraqqiyot, ayniqsa, elektron axborot

BU SHUNDAY BAYRAM

(Davomi. Boshi 1-betda)

Jurnalist igna bilan quduq qaziydi, desak mubolag'a bo'lmas: bitta maqola yozish yoki bitta eshittirish, ko'rsatuv tayyorlash uchun qancha izlanadi, qanchadan-qancha manbalarga murojaat qiladi, ter to'kadi. Lekin buning zaminida el-yurt manfaati, Vatan sharafi, dunyoga ezigulik baxsh etish mas'uliyati ham borligini teran angelaydi. Aslida ham shu, aziz bolalar, bu kasb egalari dala-hovlil, mashinali bo'lishni emas, avvalo, o'z millatiga, xalqiga munosib xizmat qilishni istaydi.

Ayrim tengdoshlaringizning «Jurnalist bo'laman» degan niyatlarini eshitgan ustozlar: «Chuqur o'ylab ko'rdingmi, bolam?» deya sinovchan boqadilar. Chunki bu soha vakillari fidoyi kishilar bo'lishadi. Qo'lingizdagi kitoblarda ham ularning qo'l izlari, ko'z nurlari bor. Siz tutgan darslikdagi har bir so'z ular uchun qadrli va aziz ekanligini bilasizmi? Muqovasi kir bo'lgan yoki yirtilgan kitoblarni ko'rganlarida jonlari juda-juda achishini bilganingizda edi, har kuni ularni qo'lingizga olganingizda, ko'zingizga surtgan bo'ladingiz. Kitobni aziz tutgan – o'zini ham aziz tutadi.

Aziz otaxon, onaxonlar! Gazetamizda uzoq yillar faoliyat yuritgan fidoyi ustozlar!

Sizlarning ishlaringizni davom ettirayotgan biz yoshlar tajribalaringizdan saboq olib, kelajagimiz egalari bo'lmish bolalar va o'smirlarning har tomonlama kamol topishlari yo'lida o'z hissamizni qo'shishga harakat qilar ekanmiz, sizlarni doimo yonimizda deb bilamiz. Bugun sizlar uchun chinakam bayram. Sizlarga sog'lik, uzoq umr tilaymiz, o'g'il-qizlar, nevaralar baxtiqbolini ko'rish nasib etaversin!



Bugun ko'psonli jamoatchi muxbirlarimizni ham tabriklaymiz. Turli viloyatlardan bizga maktub yozib turgan o'quvchi-yoshlarni ham muborakbod etamiz. Bu yil bizga sidqidildan yordam bergan shoir Tursunboy Adashboyevga, Abdurahmon Akbarga, jamoatchi muxbirimiz Abdulla Saidovga minnatdorlik izhor etamiz.

Aziz bolalar!

Bu shunaqa ajoyib bayram, ezgu so'z, ezgu fikr, ezgu niyat bilan o'zlariga qalam tutib, tinchlik, osoyishtalik va taraqqiyot uchun mehnat qilayotgan insonlarning bayrami!

*Aziz hamkasblar!
Barcha muxlislarimiz,
bolalar va o'smirlar nomidan
sizlarni kasb bayramingiz bilan
tabriklaymiz!
«Tong yulduzi» jamoasi*



Kelajakda telejurnalist bo'lish orzusida yurgan qizaloqlarimiz orasida taniqli suxandon, mohir dublyaj ustasi Dildora Rustamovaga havas qilmaydiganlarini topish qiyin. Shu ma'noda uning bolaligi, orzu-o'ylari, sevimli mashg'uloti, qo'ying'chi, faoliyatiga oid barcha ma'lumotlar ular uchun juda qiziqarli.

Bayram bahonasida sevimli suxandonimizga quyidagi savollar bilan murojaat qildik:

– Dildora Rustamovaning bolaligidagi orzulari qanday edi? U maktabda a'lochi bo'lganmi?

– Poytaxtimizdagi xitoy tiliga

ixtisoslashtirilgan 59-maktabni a'lo baholarga tamomlaganman. Ayniqsa, xitoy tiliga qiziqishim kuchli bo'lgan. Ustozlarimning

*Dildora Rustamova
a'lochi bo'lgan...mi?*

ham mendan umidlari katta edi.

Orzularimga kelsak, juda ko'p sohalarga qiziqishim bo'lgan. Bir qarasangiz, «bolalar» ko'rsatuvi boshlovchisi Dilfuza Yusupovaga havas

qilib, suxandonlik kasbini tanlagim kelardi, bir qarasangiz, tarjimon yoki iqtisodchi bo'lgim kelardi.

Ulg'ayganim sari suxandonlikka bo'lgan havas ustunlik qildi. Dastlab Toshkent Davlat san'at institutida, keyin esa O'zbekiston Milliy universitetida tahsil oldim.

– Kasbingizning o'ziga yarasha qiyinchiliklari ham bor. Bu kasbni tanlaganingizdan afsuslangan paytlaringiz ham bo'lganmi?

– Ba'zan ikkilangan paytlarim ham bo'ladi. Lekin kasbimga bo'lgan

mehrim tufayli bunday xayollar tezda tarqab ketadi va yana sevimli ishimga kirishib ketaman.

– Sizga havas qiladigan qizaloqlarga maslahatlaringiz.

– Ustozlardan yaxshi ta'lim olishsin, ko'proq ovoq chiqarib, oynaga qarab badiiy kitoblarni o'qishsin, nutqlarini o'stirib borishsin...

– Bayram tadbirlari. «yugur-yugur»lardan vaqt ajratib, savollari-mizga javob berganingiz uchun tashakkur! Fursatdan foydalanib, Sizni ham ayyomingiz bilan muborakbod etamiz!

ZAMONBEKA suhbatlashdi



650 YILDA

Ayrim ma'lumotlarga qaraganda, milodiy 650 yillarda Samarqandda a'lo sifatli qog'oz tayyorlangan va qog'ozli kitoblarni tartibga keltirilgan.

KASB EGALARI QANDAY ATALGAN?

VII-VIII asrlarda tarixchi, kotiblar – «xushnavis», muqovasoz – «sahhof», kitob varaqlariga jilo beruvchi – «lavvoh» deb atalgan.

QIRQ NAFAR XATTOT ISHLAGAN

XV asrning birinchi yarmida Hirotida Mirzo Ulug'bekning ukasi Boysunqur ustaxonakutubxonasida 40 nafar xattot va bir qancha naqqosh kitoblarni ko'chirish, bezash va tartibga keltirish ishlari bilan mashg'ul bo'lishgan.

vositalaridan yanada shiddatli, hozirjavob tarzda ishlashni talab etmoqda, – deya so'z boshladi Ulug'bek akangiz.

– Mamlakatimiz istiqbolga erishganidan so'ng, o'tgan 20 yil ichida ommaviy axborot vositalarining roli va o'rni tubdan o'zgardi. 1991-yilda respublikamizda atigi 395 ta OAVlari mavjud bo'lgan bo'lsa, 2011-yilning 20-iyun holatiga kelib, bu ko'rsatkich 1243 tani tashkil etdi. E'tiborlisi shundaki, 1991-yilda davlatga qarashli bitta televideniye va radiodan boshqa elektron axborot vositasi mavjud emas edi.

Endilikda ularning soni 260 dan oshib ketdi. Bugun ommaviy telekanallar, radiokanallardan tashqari veb-saytlar ham OAVlari sifatida ro'yxatdan o'tkazilmoqda.

Aholiga tezkor axborotni yetkazish, xalqimiz ma'naviyatini yuksaltirishda

nodavlat axborot vositalarining roli ham har qachongidan ortib bormoqda.

Ayniqsa, «Vodiy sadosi», «Oriyat-dono»

AXBOROT OLAMIGA SAYOHAT



«O'zbekim taronasi», «A'lo FM», «Navro'z» singari xususiy radioto'lqinlarining ovozi uzoq qishloqlargacha yetib bordi.

Hukumatimiz, shaxsan Yurtboshimiz mamlakatimiz kelajagi bo'lgan yoshlarning sog'lom va yetuk bilimli bo'lib ulg'ayishi uchun tinmay g'amxo'rlik qilishmoqda. Istiqbolning dastlabki yillaridanoq bolalarning yetakchi nashrlari – «Tong yulduzi», «Klass», «Gulxan», «G'uncha» gazeta va jurnallari davlatimiz ajratayotgan byudjet mablag'lari hisobiga arzon baholarda chop etilib, o'quvchilarga yetkazib berilmoqda.

Mana bugun siz axborot olamiga sayohat qilib, oz bo'lsa-da, ma'lumotga ega bo'ldingiz. Bu bayram nafaqat matbuot, radio va televideniye xodimlari, balki siz uchun eng muhim darsliklar va o'quv qo'llanmalari tayyorlab, nashr etayotgan «O'zbekiston», «O'qituvchi», Cho'lpon, G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uylari, «Sharq» NMAK, «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, «Ma'rifat» singari nashriyotlar ijodiy jamoalari, matbaachilarining ham qutlug' ayyomidir.

Bayramingiz muborak bo'lsin!

Gazetamiz chop etiladi



Mana, gazeta ham tayyor, endi tarqatsak ham bo'ladi.

Xalqimizda ayrim kasblar haqida gap ketganda, «noni qattiq» degan iborani qo'llashadi. Jurnalistika ham ana shunday kasblar sirasiga kiradi. O'quvchilarimiz bizga yo'llagan maktublarida yoki uchrashuvlarda jurnalist bo'lish orzusida ekanliklarini ko'p bor ta'kidlashadi. Rosti, bu gapdan biz ham behad quvonamiz. Ammo ular bu kasbning o'ziga xos nozik jihatlari, ayni damda, yuksak mas'uliyati ham borligi haqida bilmikanlar, degan andishamiz ham yo'q emas.



Oynayi jahon orqali qiziqarli ko'rsatuvlar tayyorlaydigan ayol jurnalistlarni ko'rsam, ularga havasim kelardi.

HAVAS

ORZUGA AYLANDI

Tahririyat xodimlari nonvoy o'z nonini mazali, go'zal qilib tortiq qilgani kabi gazetaning har bir sonini rang-barang bo'lishi uchun tinmay izlanadilar. Siz bir zumda o'qib chiqadigan maqolani jurnalist aka va opalaringiz sizga yozadigan darajaga keltirish uchun qancha izlanishlari, mehnat qilishlarini bilasizmi? Yangiliklarni sizga tezroq yetkazish uchun yelib-yugurishlarini bir ko'rsangiz edi... Bolajonlar o'z «olam»lariga hammani ham kiritaverishmaydi. Ularning qalbiga yo'l topish uchun bola kabi beg'ubor bo'lish kerak. Bu baxt esa hammaga ham nasib etavermaydi.

Mana, nihoyat navbatdagi sonimiz ham tayyor bo'ldi. Gazetamiz «O'zbekiston» NMTU bosmaxonasida chop etiladi. Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlari kuni munosabati bilan Sizlarni ham u yerga taklif etamiz. Noshir aka-opalaringiz bilan ham tanishasiz. Bu sayohat siz uchun juda maroqli bo'lishiga ishonamiz.

YUSUF og'a.

Rasmlar muallifi: Z.MUHSIMOVA



«Tong yulduzi»dan qo'ng'iroq bo'ldi.

Ranglari ham joyida.

Hammasi joyida, chop etishni boshlaymiz.

O'zbek tilida ravon so'zlashlarini eshitib,

men ham

ko'zguga

qarab kitob

o'qishni odat

qildim.

Yillar o'tishi

bilan bu havas

orzuga

aylandi. Unga

yetishish uchun

hozirdanoq

barcha fanlarni,

ayniqsa, ona tili

va adabiyot, chet tili fanlarini yaxshilab o'rganyapman.

Ayniqsa, mashhur jurnalistlar haqidagi kitoblarni o'qish mening sevimli mashg'ulotimga aylangan.

Yaqinda internet sahifalarida yangi chiqqan kitoblarni ko'zdan kechirayotib, «Qanday qilib mashhur jurnalist bo'lish mumkin?» nomli kitobga ko'zim tushdi. Jurnalist Vitaliy Tretyakovning ushbu kitobini o'qib chiqib, jurnalistika o'ta mashaqqatli, shu bilan birga, juda qiziqarli kasb ekanligini bilib oldim.

Fursatdan foydalanib, bu mashaqqatli kasb egalari

bilan qutlab, ishlariga omad tilab qolaman.

bayramlari bilan qutlab, ishlariga omad tilab qolaman.

bayramlari bilan qutlab, ishlariga omad tilab qolaman.

bayramlari bilan qutlab, ishlariga omad tilab qolaman.

bayramlari bilan qutlab, ishlariga omad tilab qolaman.

bayramlari bilan qutlab, ishlariga omad tilab qolaman.

bayramlari bilan qutlab, ishlariga omad tilab qolaman.

bayramlari bilan qutlab, ishlariga omad tilab qolaman.

bayramlari bilan qutlab, ishlariga omad tilab qolaman.

bayramlari bilan qutlab, ishlariga omad tilab qolaman.

bayramlari bilan qutlab, ishlariga omad tilab qolaman.



Gazetani chiroyli taxlash juda maroqli.

Saida ORTIQBOYEVA,
Toshkent viloyati, Pskent tumanidagi
2-maktabning 6-sinf o'quvchisi



2-iyul – O'zbekiston Respublikasi
Davlat Gerbi qabul qilingan kun

BAXT-OMAD RAUZI

Qadim turkiy tilda «GERB» bo'lur – TAMG'A,
Anglatar u – meros va mol-u mulkni.
Ajadlar qoldirgan avlodlarga
An'ana, urf-odat va yaxshi xulqni.

Chamanday yashnagan bir o'lka uzra
Porlab zarrin nurlar sochadi QUYOSH.
O'tmish tarixi boy shu go'zal yurtga
Baxt-iqbol yo'llarin ochadi QUYOSH.

Nigohi ertangi kunga qadalgan,
Bag'ri kenglik timsoli, bu – HUMO qushi.
Qanotlarin keng yozib, yurtga omonlik,
Baxt tilab turadi, bu – HUMO qushi.

O'zbekning bayrog'i yanglig' gulchambar –
Moviy, oq va yashil rangda tovlanar.
Jilolanib qizil rangli chiziqlar
Vujudida jo'sh urgan qondek mavjlanar.

Bug'doy boshloqlari – qanday chiroyli,
Rizq-ro'zimiz butun, hayot farovon.
«Oq oltin» – PAXTAmiz – bebaho boylik
Farzandlar kamolin tilar XALQ har on.

O'ZBEKISTON go'yo bir OLTIN UZUK
GERBdir – shu uzukning MARVARID KO'ZI.
YURTIM KELAJAGI bo'lg'usi BUYUK,
Mangu balqin xalqim, TOLE YULDUZI!!!

Eshniyoz BURHONOV,

Qashqadaryo viloyati, Chiroqchi tumani

«Kamolot»da kamol top!

FESTIVALGA MARHABO!

Aziz bolajonlar,
mustaqilligimizning 20 yilligini
nishonlash arafasida turibmiz. «Kamolot»
yoshlar ijtimoiy harakati ham bu bayramga o'zining
munosib sovg'alarini tayyorlagan.

Respublikamiz bo'ylab «Buyuk va muqaddassan, mustaqil
Vatan!» shiori ostida yoshlar festivallari o'tkazilmoqda.

Bu festival shu kunga qadar Toshkent shahri hamda Toshkent,
Jizzax, Qashqadaryo viloyatlari, Qoraqalpog'iston Respublikasida
o'tkazilib, 100 mingdan ziyod yoshlarni qamrab oldi.

Festivallar doirasida yoshlar o'rtasida turli yot g'oyalarga
qarshi «Ommaviy tahdidlar va yoshlar ma'naviyati», targ'ibot
loyihasi, «Deputatlar va yoshlar» mavzusidagi davra suhbatlari,
iqtidorli yoshlarni kashf etish maqsadida «Sharaf daqiqasi»
ko'rik-tanlovi o'tkazildi. Taniqli san'atkorlar ishtirokida ijodiy
uchrashuvlar, filmlar namoyishi, taniqli sport ustalari bilan «Biz
sog'lom turmush tarafdorimiz» shiori ostidagi sport
musobaqalari uyushtirilyapti.

Ozoda TURSUNBOYEVA,
o'z muxbirimiz



Nilufar MO'MINOVA 1989-yilda
tug'ilgan. Hozirda Toshkent irri-
gatsiya va melioratsiya instituti
talabasi.

– Bobom Safar Barnoyevning
menga bergan o'g'itlari qulog'imdian
sira ketmaydi. Doimo halol va pok,
to'g'riso'z bo'lg'in, atrofdagilarga
mehribon, mehnatkash bo'lsangina,
hayotda o'z o'rningni topasan,
deganlari shu kunlarda menga
asqotmoqda. Barcha zahmatkash
qalamkashlarni kasb bayramlari
hamda mustaqilligimizning 20 yilligi
bilan chin dildan muborakbod
etaman.

OLTINGA TENG QOG'OZLAR

Ta'til kunlari boshlandi. Har kuni
erta turib maktabga o'tlanadigan
Nozima hamon shu odatini kanda
qilmadi. Birpasda hammayoqni
chinniday qilib supurib-sidirib,
chelakdagi suvni shakarob qilib
sepganda, hovliga fayz kirdi. So'ngra,
barcha oila a'zolari nonushtaga
to'planishdi.

– Anavi ajratib qo'yilgan
qog'ozlarni xas-xashak bilan yoqib
yuborarsan, – tayinladi oyisi ishga
keta turib.

– Xo'p bo'ladi. Lekin ichidan
anchagina toza qog'ozlarni ajratib
qo'ydim, – dedi Nozima piyolalarni
yig'ishtirarkan.

– Barakalla, qizim!
Nozimaning jiyani Madina so'rab
qoldi:

– Opa, qog'oz nimadan
tayyorlanadi?

– Daraxtdan! – javob qildi Nozima.

– Nima, daraxtdan ham qog'oz
qilinadimi?!

– Ha, buni menga opam aytib
berganlar.

...Dunyodagi barcha noyob asarlar
oshlangan kiyik terisiga yozib
qoldirilgan. Keyinchalik qog'oz
tayyorlash yo'llari, usullari ixtiro
qilingan.

Qog'oz o'sha zamonlarda
o'zimizning ana shu tut novdalaridan
qo'q mehnati evaziga yaratilgan.
Mayin tut novdalari tanlanib,
po'stlog'i shilib olinadi va 5-6 soat
qaynatiladi. Qaynab chiqqach,
hovonchada yaxshilab maydalanadi,
ezib pishirilgan po'stlog' yanchiladi,
tegirmonda aylantiriladi. So'ngra,
yana urib-urib yoziladi. Bu
Samarqand qog'oz. Dunyoda
Boburiylar qog'oz eng sifatli
hisoblangan.

Ana, ko'rdingizmi, bolajonlar,
tarixiy yozma manbalarga tayanib,
qimmatbaho asarlarning saqlanish
sirlarini ham bilib oldik.

Nilufar MO'MINOVA



«Mustaqillik madhi bolalar ijodida» tanloviga

Tengdoshingiz Shodiyabegim gazetamizning eng
faol yosh muxbirlaridan. U birinchilardan bo'lib
Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlari
bayrami bilan bizni tabrikлади.

Gazetamizda e'lon qilinayotgan hech bir tanlov
tinib-tinchimas yosh muxbirimiz e'tiboridan chetda
qolmaydi. Shodiyabegim tanlovda g'oliblik uchun
kurashmaydi, balki ishtirokining o'zi g'oliblik
ekanini juda yaxshi biladi. Nima bo'lganda ham
unga omad tilaymiz.

Porloq bo'lsin IQBOLING!

Hukumatimiz tomonidan biz yoshlarga keng imkoniyatlar yaratilmoqda.
Shaxsan men 2008-yil «Yoshlar yili»da «Yangi avlod» bolalar ijodiyoti
festivalining she'riyat yo'nalishi bo'yicha qatnashib, Respublika bosqichida g'olib
bo'ldim. Muhtasham «Istiqlol» san'at saroyida laureatlik diplomi va sovrinini
qo'lga olar ekanman, qalbim yuksak faxr, iftixor, quvonch hissi bilan to'lib toshdi.

«Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili» ham biz yoshlarga keng imkoniyatlar
eshigini ochdi. Men ushbu yilda o'z orzuimga erishdim, «Umid qushi» nomli ilk
she'riy to'plamim nashrdan chiqdi. «Do'rmon» ijod uyida o'tkazilgan «Bolalar
adabiyoti kunlari» seminarida Jurnalistlarni qo'llab-quvvatlash fondining «Yosh
jurnalistlar va yosh ijodkorlar» seminarida qatnashdim.

Mustaqillik ota-bobolarimizning azaliy orzusi, oliy ne'mat, oliy qadriyatdir.
Uni avaylab-asrash barchamiz uchun ham farz, ham qarzdur. Buning uchun
esa o'zimizga «Men yurt uchun qanday ishlarni amalga oshirdim?» degan
savolni berib yashashimiz kerak.

Shodiyabegim SHAROFIY,
Jizzax viloyati, Forish tumanidagi 59-maktab o'quvchisi

Qog'irchoqboz o'quvchilar

Poytaxtimizning Sergeli tumanidagi 300-
ixtisoslashtirilgan maktabning ta'lim rus tilida olib
boriladigan 2-sinf o'quvchilari yozgi ta'til oldidan o'ziga xos
sinovdan o'tdilar. Ular ustozlari L.Qodirova va L.Dyu
boshchiligidagi yil davomida olgan bilimlarini sarhisob etishdi. Turli
millatga mansub o'quvchilar «Besh tosh», «Quvlashmashoq», «Oq
terakmi, ko'k terak?» «Vizvizak» kabi milliy xalq o'yinlarini mahorat
bilan ijro etishganda, tomoshabinlar ham beixtiyor sahnaga chiqib
ketishganini sezmay qolishdi. Shuningdek, «Bo'ri va yetti uloqcha», «Ola-
bula tovuqcha» spektakllari ham namoyish etildi.

O'quvchilar ta'til davomida yana shunday spektakllarni tayyorlab,
tengdoshlari hukmiga havola etish niyatida ekanliklarini bildirishdi.

Jamoliddin HAMDAMOV,
O'zDJT universiteti qoshidagi litsey talabasi

Bayramlar, tanianalar yashadigan yurtimizda yana bir shodiyona: Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlari kuni, ya'ni, jurnalist aka va opalarigizning kasb bayrami. Shuningdek, ziyrak va zukko Siz aziz yosh muzbirlarimizning ham ayyomingiz. Bayram munosabati bilan O'zbekiston jurnalistlari ijodiy uyushmasi raisi Sherzod G'AYBOMOVdan jurnalistlarimiz faolligini oshirish, ularni rag'batlantirish, iqtidorli yoshlarning intellektual salohiyatini ro'yobga chiqarish borasida uyushmada amalga oshirilayotgan ishlar xususida gapirib berishlarini iltimos qildik.

– Ma'lumki, Yurtboshimizning 1993-yil 24-iyundagi «O'zbekiston Respublikasi Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlari kunini belgilash to'g'risidagi» Farmoniga asosan 27-iyun – Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlari kuni sifatida nishonlanib kelmoqda.

bag'ishlab «Eng ulug', eng aziz» kabi ko'rik-tanlovlar iqtidorli jurnalistlarni aniqlash, qo'llab-quvvatlash, ularni yangi ijodiy marralar sari yo'naltirishda muhim ahamiyat



Dovrug'i olamga ketsin

Jurnalistlarning ijodiy faolligini va mahoratini oshirishda O'zbekiston Jurnalistlari ijodiy uyushmasi tomonidan o'tkazilayotgan turli nomdagi ijodiy tanlovlarning o'rni beqiyos. Masalan, 8-mart bayrami munosabati bilan jurnalist xotin-qizlar orasida «Atirgul» tanlovi, jahon matbuot erkinligi kuni (3-may)ga bag'ishlangan «Oltin qalam» milliy mukofoti uchun xalqaro tanlov, kasb bayramimiz «Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlari kuni» (27-iyun) munosabati bilan o'tkazilayotgan «Yilning eng faol jurnalisti» tanlovi, mamlakatimiz Davlat mustaqilligi kuniga

kasb etyapti.

Hozirgi kunda jurnalistika sohasidagi eng dolzarb masalalardan yana biri – iqtidorli va qobiliyatli yoshlarning o'z intellektual salohiyatini ro'yobga chiqarishlari uchun zarur shart-sharoit va imkoniyatlar yaratish, zamonaviy axborot kommunikatsiyalari texnologiyalari, raqamli va keng formatli telekommunikatsiya aloqa vositalari, internet tarmog'ini yanada rivojlantirishdan iborat. Shu borada O'zbekiston jurnalistlar ijodiy uyushmasi, «O'zbekiston madaniyati va san'ati» forumi jamg'armasi, O'zbekiston elektron OAV va axborot

agentliklarini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish jamoat fondi hamkorligida izlanayotgan umidli yoshlarni aniqlash, ular faoliyatini davr ruhiga monand tashkil etishga yaqindan ko'maklashish maqsadidagi turli ijodiy loyihalar, grant dasturlari amalga oshirilib, seminar-mashg'ulotlar, anjumanlar, ko'rik-tanlovlar, malaka oshirish kurslari tashkil etilib borilmoqda. Yosh ijodkorlar uchun Farg'ona, Shahrizabz kabi yurtimizning so'lim go'shalarida yozgi oromgohlar tashkil qilinayotgani ham ayni muddao bo'lyapti.

Bunday e'tibor, imkoniyatlarga javoban yosh qalamkashlarimiz ham puxta bilim olishlari, astoydil mehnat qilib, yurtimiz ravnaqiga o'z hissalarini qo'shishlari lozim. Kelgusida ularning xalqaro jurnalistlar sifatida dunyolarga chiqishlariga, yurtimiz dovrug'ini chet ellarga tanitishlariga shubham yo'q.

Fursatdan foydalanib, respublikadagi barcha hamkasblarimizni kasb bayramlari bilan muborakbod etaman! Yoshlarimizga ijodiy barkamollik tilayman.

Feruza JALILOVA yozib oldi

YOZGI TA'TIL – BIR YILGA TATIRI!

Abdulla SAIDOV:

– Shahar tashqarisida joylashgan 16 ta, maktablar qoshidagi 46 ta, kunduzgi oromgohlarda 7210 nafar o'g'il-qiz hordiq chiqarishyapti. Shuningdek, ularning 9115 nafari bolalar va o'smirlar sport maktabiga, 21000 nafari esa turistik sayohat va ekskursiyalarga jalb etilgan. «Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili» munosabati bilan homiyilar tomonidan nogiron, boquvchisini yo'qotgan hamda ijtimoiy himoyaga va sog'lomlashtirishga muhtoj 450 bolaga imtiyozli, bepul yo'llanmalar ajratildi. Shunisi quvonarliki, kunduzgi oromgohlarda dam oluvchilar soni o'tgan yilga nisbatan 20 foizga oshgan.

Ayniqsa, «Jizzaxtelekom» sho'ba korxonasiga qarashli «Aloqachi», viloyat ichki ishlar boshqarmasiga qarashli Yorulla Norbekov, viloyat gaz boshqarmasi idorasi tasarrufidagi «Zangori olov» nomli oromgohlar faoliyati tahsinga sazovordir.

– Bolajonlarning maroqli dam olishlari uchun barcha sharoitlar yaratilgan, – deydi Jizzax viloyat xalq ta'limi Davlat ta'limi standartlari monitoring bo'limi bosh nazoratchi uslubchisi, xalq ta'limi a'lochisi Zoir Sattorov. – Mavsum boshidan tayyorgarlik ishlarini Xalq ta'limi vazirligining «Bolalar yozgi sog'lomlashtirish oromgohlarida ma'naviy-ma'rifiy konsepsiyani amalga tatbiq etish to'g'risida»gi qarori asosida tashkil etdik.

Zoir akaning gaplaridan ruhanib, so'lim tog' bag'rida joylashgan «Aloqachi» oromgohi tomon yo'l oldik. Bizni iliq qarshi olgan oromgoh rahbari Shuhrat Hakimov hamrohligida 125 nafar o'g'il-qiz miriqib hordiq chiqarayotgan oromgohni aylandik. Tarbiyalanuvchilar Aziza Mahkamova, Baxtiyor Saidqulov, Qumri Ahmedova singari mohir tarbiyachilari boshchiligidagi «O'rdak va g'oz», «Ovozidan tanib ol», «Toza havoda o'yinlar» kabi o'yinlarga jalb qilingan.

O'quvchilarning yozgi ta'til kunlari avji pallada. Respublikamizning barcha o'g'il-qizlari qatori jizzaxlik bolajonlar ham miriqib yoz gashtini surishyapti. Bizning eng faol jamoatchi muxbirlarimiz esa allaqachon joylarda bo'lib, oromgohlardan lavhalar tayyorlashga, dam oluvchilarning taassurotlari bilan o'rtoqlashishga ulgurishdi.

Qani, o'qib ko'raylik-chi, ular nimalar haqida yozishibdi:

– Men o'z taassurotlarimni bo'yoqlar orqali qog'ozda aks ettirishni xush ko'raman, – deydi 11 yoshli Zarina chizayotgan suratidan ko'z uzmay. – «Mening o'lkam», «Qanotli himoyachilarmiz», «Qoya va tog'lar» kabi mavzulardagi rasmlar tanlovining tashkil etilgani biz ijodkor bolalar uchun ayni muddao bo'ldi.

– Men esa «Chaqqonlar, epchillar va zukkolar» sport musobaqasida qatnashdim, – deydi hayajon bilan 14 yoshli Komiljon ismli bola. – Tez-tez Zomin tog'lariga sayohatlar uyushtiryapmiz. Zominning qadimiy yerosti obidasi Peshag'orga qilgan sayohatimiz menda katta taassurot qoldirdi...

Quloq tutsak, bu maskanda dam olayotgan har bir o'g'il-qizning taassurotlari bir olam ekan. Ishonamizki, nafaqat bu yerda, balki jannatmakon diyorumiz bag'ridagi barcha so'lim oromgohlarda yozgi ta'tilni maroqli, mazmunli o'tkazayotgan bolajonlarning taassurotlari ham ularnikidan kam emas.



Sa'dulla QOZOQOV:

– Bu yil zarbdorlik 500 nafar o'g'il-qizning Jizzax tumanidagi so'lim oromgohlarda miriqib hordiq chiqarishlari, salomatliklarini tiklashlari rejalashtirilgan edi. Unga ko'ra, Ravotdagi «Bo'ston» oromgohida 200 nafar, «Sharq yulduzi» suvdan foydalanuvchilar uyushmasiga qarashli «G'uncha» bolalar bog'chasida tashkil etilgan «Kamalak» oromgohida 100 nafar, Lalmikor fuqarolar yig'inidagi «Oltin boshqoq» bolalar bog'chasida tashkil etilgan «Lochin» oromgohida 100 nafar, Bo'ston shaharchasidagi «Dilbar» bolalar bog'chasi qoshida ochilgan so'lim oromgohda 100 nafar bolajonlar miriqib dam olishyapti.

Yuz marta eshitgandan, bir marta ko'rgan afzal, deganlaridek, «Oltin boshqoq» bog'chasi qoshidagi «Lochin» oromgohida kichikintoylarning qanday dam olayotganlarini o'z ko'zimiz bilan ko'ring.



Elim omon-omondir,
Yo'lim quyosh tomondir!

ISTIQLOL BOLALARI

(Qo'shiq)

Istiqloldan bahra olgan,
Yurt mehrini dilga solgan,
Shodlik kuyin baland chalgan,
Biz bolalar, biz bolalar –
Quvnoq o'g'il-qiz bolalar.

Chaqin chaqnar ko'zimizda,
Olov bor-da ko'ksimizda,
Yolg'on yo'qdir so'zimizda,
Biz bolalar, biz bolalar –
Quvnoq o'g'il-qiz bolalar.

Vatan ozod – Vatan obod,
Kelajakka boramiz shod,
Shodon avlod – sog'lom avlod,
Biz bolalar, biz bolalar –
Quvnoq o'g'il-qiz bolalar.

A'lo o'qish – chin o'ntimiz,
O'zbek elin quvonchimiz,
Ulug' Vatan ishonchimiz,
Biz bolalar, biz bolalar –
Quvnoq o'g'il-qiz bolalar!



BAYROG'IM - IFTIXORIM

Elning erk-u g'ururin
Ramzi, baxt charog'i bu.
Ozod yurt bayrog'i bu,
Obod yurt bayrog'i bu!

Ulug' bobolar ruhi
Shahdi mujassam unda.
Elim degan erlarning,
Ahdı mujassam unda.

Mustaqillik shukuhi,
Qadri mujassam unda.
Ko'zimiz qarog'i bu –
Ozod yurt bayrog'i bu.

Yuksaklarda hilpirab –
Porlab turar hamisha.
Buyuk g'alabalarga
Chorlab turar hamisha.
Ezgulik mayog'i bu,
Ozod yurt bayrog'i bu!

Dilshod RAJAB

YURTIM



Shodliklar kezadi chaman-u bog'ni,
Gullarga burkangan adir-u bog'ni.
Xalqing surtgay ko'zga aziz tuproqni,
Yurtim, qutlug' yoshing muborak bo'lsin!

Qadim o'tmishingni yodda saqlayin,
Bosgan har qadaming dildan yoqlayin.
Bir farzanddek bo'lib burchim oqlayin,
Yurtim, qutlug' yoshing muborak bo'lsin!

Go'zal YASHINOVA,

Qashqadaryo viloyati, Shahrisabz
tumanidagi 98-umumta'lim maktabi
o'quvchisi



JANNATMAKON DIYORIM

Shirin-shakar mevaga kon bog'laring,
Oq-oltindan yaralmoqda tog'laring.
Qalbing tiniq, g'uborsiz, yo'q dog'laring,
Yasha, yashna bizning ulug' hur Vatan,
Jahonga soch quyosh kabi, nur Vatan.

G'olib xalqing o'z ahdiga vafodor,
Sen tinchlikning yetakchisi bayroqdor.
Saflar tetik, qator-qator noring bor.
Yasha, yashna bizning ulug' hur Vatan,
Jahonga soch quyosh kabi, nur Vatan.

To'ylaringga ko'plar bo'ldi jo'rovo
Yo'llaringga oy ham soldi poyondoz.
Istiqloldan hayotimiz yashnar soz,
Yasha, yashna bizning ulug' hur Vatan,
Jahonga soch quyosh kabi, nur Vatan.

Shahnoza SHAMSIDDINOVA,
Sirdaryo viloyati, Mirzaobod tumanidagi
1-maktab o'quvchisi



VATAN

Har giyohing azizdir menga,
Onajonim, bir donam Vatan.
Tuproqlaring ko'zga to'tiyoy,
Sajdagohim, yagonam Vatan.

Kindik qonim to'kilgan senda,
Ko'z ochganim, nahorim, Vatan.
Dunyolarga alishmam aslo,
Sen borlig'im, bahorim, Vatan!

Aziza AKBAR qizi,
Toshkentdagi 249-umumta'lim
maktabining 9-sinf o'quvchisi

Chol qishloq chekkasidagi chog'roqqina hovlida
kampiri bilan yashardi. Buvimning aytishicha, ular
qishlog'imizga «kelgindi», «musofir» ekan. Lekin
qachon va qayerdan kelib qolishgani hanuzgacha
menga qorong'u. Har holda men esimni
taniganimdan buyon ular shu yerda edi.

Chol tundligidanmi yoki to'y-hashamlarga kam
aralashganidanmi, odamlar nazaridan chetda qolgandi.
Uylarida biron-bir ma'raka qilinganini eslolmayman.
Cholning to'yi ham, farzandi ham, oshna-
og'aynisi ham o'z chorbog'i edi. Bu
bog' kichkina «jannat» edi. Bog'da
ertapishar gilosdan tortib, mazasi
bolni dog'da qoldiradigan zarg'aldoq
shaftoli-yu Qrimning tilyor olmasi,
qora anjir, ta'mini ko'pchilik unutib
yuborgan nashvatigacha bo'lardi.
Mazaxo'rak chug'urchuqlar bilan
birga kech kuzgacha biz ham bu yerda
parvona bo'lardik.

Bir yaxshiga bir yomon, deganlaridek,
cholning kampiri butunlay uning teskarisi. U
serharakat, jikkakkina, rahmdil ayol edi.
Bu ayolni butun mahalla yaxshi ko'radi,
chunki u odamlar orasida anchagina
mashhur tabib edi-da. Qaysi
giyohning qanday dardga davo
bo'lishini juda yaxshi bilardi...

Bir marta, yetti yoshlarda
bo'lsam kerak, chechak bilan
og'rib, qattiq yotib qoldim.
Hatto ko'zim yumilib qoldi. Oyim yig'lab borib, shu
kampiri boshlab chiqdilar.

– Voy, o'zimning polvon bolam-ku bu. Men
bolamga ataylab bir qultum suv olib keldim, shuni
ichsa, Alpomishday bo'lib ketadi, ko'zi ham kunduzi
yulduzni ko'radigan bo'ladi.


Men kampir og'zimga quyan suvni ichib
yubordim-u, taxirligi alam qilib yig'ladim. Lekin
kechga borib issig'im ham tushdi, ko'zim ham
ochildi. Keyin bilsam, u menga chuvalchangni ezib
ichirgan ekan.

Kampir bizni bog'da, daraxt tepasida ko'rsa ham
ko'rmaganga solar, cholning sharpasini sezgan zahoti
«chug'urchuq»larni haydab, bizni ogohlantirardi. U

Muhabbat HAMIDOVA

«chug'urchuq»larni koyishi bilan biz daraxtlardan tushib,
ura qochardik. Bir gal qiziq bo'lgandi: biz – Akrom,
Islom, Ikrom, Odiljon va men mollarimizni soyaga
olgach, Tolariqda mazza qilib cho'mildik. Tolariq –
qishlog'imiz etagidan o'tadigan kattagina soy. Soyning
har ikkala qirg'og'idagi azamat qoratollar suvga tangadek
oftob tushurmaydi. Suv ertalab ham, qoq tushda, hatto

ODAMNING O'RNI



kechqurun ham muzday bo'ladi. Balki shuning uchun
soyni Tolariq deb atashgandir. Tolariqning chap qirg'og'i
«Changal ota» mozori bilan tutashib ketgan. Mozorga
kiraverishda, shunday soyning bo'yida ikki xonali machit
joylashgan. Machitning atrofi gir aylana bog'. Har kuni
bog'da kuymalanib, goh daraxtlarni butab, goh o't o'rib
yuradigan machit qorovuli – go'rkov Qurol amaki
ovqatlangani uyga ketganmi yoki issiqdan qochib
ichkarida uxlab yotibdimi, ko'rinmaydi. Machit sahniga
soya solib turgan ishkondagi kishmishlar qop-qorayib,
pishib yotibdi. Mozor haqida har xil vahimali gaplarni
eshitganimizdan qornimiz o'lguday och bo'lishiga
qaramay, u tomonga o'tishga yuragimiz betlamaydi.

(Davomi bor)



Har bir kasbning o'z fidoyilari bor. «O'zbekiston adabiyoti va san'ati» gazetasining san'at bo'limi mudiri, jurnalist, «Mehnat shuhrati» ordeni sohibasi Gulchehra UMAROVA ana shunday o'z kasbining haqiqiy fidoyisi bo'lgan ijodkorlardan biri.

Bayram kunlarida tajribali jurnalist opamizni muxbirimiz Feruza ADILOVA suhbatga tortdi:

BUGUNGI YOSHLARGA HAVAS QILAMAN,

– deydi «Mehnat shuhrati» ordeni sohibasi Gulchehra UMAROVA

– O'zimni omadi chopgan, baxti kulgan ijodkorlardan biri, deb bilaman. Jurnalistikani, matbuotni nihoyatda yaxshi ko'rganimdan, «O'zbekiston adabiyoti va san'ati» gazetasidagi hayotimni tasavvur qila olmaganimdan umrimning o'ttiz uch yilga yaqini qanday o'tganini sezmay ham qoldim.

Albatta, biz faoliyat boshlagan davr bilan bugungi kun jurnalistika jarayoni orasida katta farq bor. Bugungi yoshlarga, xususan, endigina faoliyat boshlayotgan yosh qalamkashlarga havasim keladi. Mustaqillik ijod erkinligini, imkoniyatiga qarab tanlash huquqini, o'z fikrini emin-erkin bayon qilish huquqini berdi.

Xalqaro jurnalistika, san'atshunoslik jurnalistikasi atamallari hayotimizdan

mustahkam o'rin egalladi. Bugun yosh ijodkorlar o'z iqtidorlarini namoyon etishlari uchun turli-tuman festivallari, ko'rik-tanlovlari, shou-tadbirlar tashkil etilgan, iste'dod egalari eng yaxshi mukofotlar, sovrinlar kutib turibdi. Tilga tushgan, ijodlari katta davralarda e'tirof etilayotgan yoshlar oz emas. Bularning bari insonda faxr va g'urur tuyg'ularini uyg'otadi, matbuotimiz kelajagi yorqin bo'lishiga ishonch tug'diradi.

Shu bilan birga, bugungi jurnalistika jarayonini kuzatish natijasida tug'ilgan ba'zi mulohazalarni ham aytishga undaydi. Avvalo, bozor iqtisodi sharoitida yoshlar jurnalistikani ham moddiy daromad manbai sifatida tanlamasliklarini istardim. Chunki jurnalistika ijod, ijodiy jarayon, u odamlar tashvishida yashashni, tom ma'noda, to'rtinchi hokimiyat vakili bo'lishni talab etadi. Binobarin, matbuot ostonasiga qadam qo'yayotgan har bir yosh iqtidor bunga

tayyor bo'lishi kerak.

Xalqaro jurnalistika fakultetini bitirganlar orasida o'zi tanlagan chet tili bo'yicha muvaffaqiyat bilan ish olib borayotgan jurnalistlar soni ko'paysa, juda yaxshi bo'lardi. Vaholanki, men o'zimda ana shunday imkoniyat bo'lmagandan afsuslanaman. Qani endi jurnalistlarimiz

chet tillarda zo'r chiqishlar qilishsa, boshqa tillardan bekor-u ko'st tarjimalari bilan o'quvchilarni lol qoldirishsa...

Yurtimiz, Prezidentimiz, xalqimiz yoshlarga katta ishonch bildirib, ularni kelajagimiz egalari sifatida ko'rayotgan ekan, ular ham ishonchni oqlashlari, shunga yarasha ijod qilishlari kerak, deb o'ylayman. Yoshlar buning uddasidan, albatta chiqi oladilar, hafsala qilsalar, yaratilayotgan shart-sharoitlar va imkoniyatlardan unumli foydalana bilsalar bo'lgani.

Bugun kasb bayramimiz munosabati bilan, avvalo, ustozlarimizni, barcha hamkasblarimni chin dildan qutlayman, ijodlariga baraka, barkamollik tilayman. Jurnalistikaga kirib kelayotgan va bu sohaga qiziqqan barcha yoshlarga kasb sirlarini o'rganishda sabr-toqat yor bo'lsin, ustozlardan o'rganishdan charchashmasin, fidoyilik, odillik, haqqoniylik, kasbga mehr-muhabbat ularga yo'ldosh bo'lsin.

«Kamolot» YOIH Toshkent shahar Kengashi tomonidan yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish, ularning salohiyatini ko'tarish, sog'lom turmush madaniyatini takomillashtirish borasida keng ko'lamda ma'rifiy ishlar amalga oshirilmoqda.

Bu yil Toshkent shahri bo'yicha jami 56 ta maktab qoshida oromgohlar tashkil etilgan bo'lib, ularda 16000 dan ziyod o'quvchilarning dam olishlari ko'zda tutilgan.

Taniqli shoir va yozuvchilar, Zulfiya, «Nihol» mukofoti sovrindorlari, sevimli xonandalar bilan uchrashuvlar o'tkazish rejalashtirilgan. Bundan tashqari, mavsum davomida 474 ta mahallada turli xayriya tadbirlari o'tkaziladi. Qaynoq yozdagi qaynoq tadbirlarda ishtirok eting.

O'z muxbirimiz

BOLALARGA NIMA KERAK?

Bilasizmi, har bir oromgohning o'ziga xos go'zal tabiati bor. Andijon viloyatida joylashgan oromgohlar ham so'lim va betakror manzarasi bilan ajralib turadi.

Shahar atrofida joylashgan 19 ta maktablar, kollej va litseylar qoshida faoliyat ko'rsatayotgan 41 ta kunduzgi oromgohlarda bolajonlar miriqib hordiq chiqarishyapti.

Biz viloyat kasaba uyushmalari birlashmasi madaniy-ma'rifiy va sport ishlari bo'limi mudiri Qodirjon aka RO'ZIYEVga bir necha savollar bilan murojaat qildik.

– Qodir aka, aytinch, oromgohlarda bolajonlarning maroqli dam olishlari qanday omillarga bog'liq?

– Bu ko'p jihatdan u yerdagi sharoitlarga, mutaxassislarining tajribasiga, oromgohning

o'zodaligi, tinchligiga bog'liq.

Qiziqarli uchrashuvlar, sport musobaqalari va sayohatlar uyushtirish ham juda muhim deb bilaman.

Qadrli bolajonlar! Siz-chi, bu savolga qanday javob berasiz? Xatlaringizni kutib qolamiz.



Surxondaryo viloyatining Uzun tumanida joylashgan Xolmuhammad Qulniyozov nomli «Yozgi intellektual sog'lomlashtirish oromgohi» ham yangi maskanlardan biri.

Bu so'lim go'sha ayni damda fan olimpiadalarida g'oliblikni qo'lga kiritgan tengdoshlaringiz bilan gavjum. A'lochi bolalarning yanada a'lo o'qishlari uchun tog' havosi ijobiy ta'sir o'tkazishiga ishonasizmi?

Boz ustiga, oromgoh har kuni bir necha mehmonlarni quchoq ochib kutib olmoqda. Taniqli olim va

yozuvchilar, shoir va san'atkorlar bilan uchrashuvlarda,

ijodiy festival va

ko'rik-tan-

lovlar, sport

musobaqalari,

s p a r -

takiadalarda

ularning bilim

va salohiyati

yana bir bor

sinovdan o't-

moqda.

1. Toping-chi!

Abdulla Oripov ijodiga mansub quyidagi she'rda qaysi muhtasham haykal nazarda tutilyapti?

Maydon maftun etdi ko'plarni g'oyat,
Bu joyda aytilar qancha rivoyat.
Bir kun ona-bola kirib keldi-yu,
Maydon egasini topdi nihoyat!

2. «Eng yaxshi do'st – bilim».
Bu so'zni kim aytgan?

- a) Najmiddin Kubro;
b) Sakkoki;
d) Gulxaniy.

O'ZINGNI SINAB
KO'R

3. Bu ertaklardan qaysi birlarini o'qigansiz?

- a) «Ziyod botir»;
b) «Cho'loq bo'ri»;
d) «Uch og'a-ini botirlar».

«TONG YULDUZI»M -
TOPSHIRIQLI AYLANMA
SKANVORDI

Javoblarni so'zlar ta'rifi yozilgan aylana atrofiga belgilangan xonadan soat mili yo'nalishida yozing.

Skanvordni to'g'ri hal etgan bo'lsangiz, shakl markazidagi raqamlarni javoblar yozilgan raqamli xonalardagi mos harflar bilan almashtirib,

topshiriqni hal eting. Bunda ulardan «Tong yulduzi» gazetasining birinchi soni bosilib chiqqan shahar va hozirda nashr etilayotgan muassasa nomini bilib olasiz.

Tuzuvchi: Foziljon Oripov

BILASIZMI?

Siz ham tengdoshlaringiz kabi dunyo matbuoti bilan qiziqasiz, albatta. Bugun sizlarga Yaponiya matbuoti – radio va televideniyesi to'g'risida qisqacha ma'lumot – beramiz. Bularni ham bilib qo'yish kerak. Ehtimol, ertaga ulg'ayib, shu davlatga borib qolsangiz, bilganlaringiz o'zingizga qo'l keladi.

BOLALAR BAYRAMI



Yaponiyada 11.000 dan ortiq o'rta maktablar mavjud bo'lib, ularda 13.4 mln. o'quvchi tahsil oladi. 5-may o'g'il bolalar, 8-mart qizlar kuni sifatida nishonlanadi.

Matbuot, radio va televideniya bu to'g'risida qiziqarli qator ko'rsatuvlar, maqolalar berib boriladi. Bizda ham alohida bolalar ko'rsatuvlari, «O'yla, izla, top!» kabi

teledasturlaringiz mavjud.

«CHIQAYOTGAN QUYOSH»

Yaponiyada 166 milliy va mahalliy kundalik gazetalar, 417.8 ta oylik va haftalik jurnallar, byulletenlar nashr etiladi. Ulardan eng mashhurlari quyidagilardir: «Asaxi», ya'ni «Chiqayotgan quyosh», «Mayniti», «Iomuri», «Sankey simbun», ya'ni «Sanoat-iqtisodiy gazetasi».

Radio eshittirish 1925-yildan, teleko'rsatuvlar 1953-yildan olib boriladi.



O'TA MURAKKAB ALIFBO

Yapon alifbosida 15 mingga yaqin iyerogliflar mavjud bo'lib, hozirgi kunda ulardan 3500 tasigina qo'llanilmoqda. 1946-yilda yozuv isloh qilinish, 1850 ta iyeroglifni ishlatish rasman tavsiya etilgan edi. Hozirda bu miqdor 1947 tani tashkil etadi.



- Qizim, bugun maktabda qanday ertak o'qiding?
- «Qizil qalpog'cha» ertagini.
- Xo'sh, undan qanday xulosa chiqarding?
- Buvimning ko'rinishlarini yaxshilab eslab qolmoqchiman.

Mahfuzaxon
JALOLDINOVA,
Andijon viloyati, Andijon tumani



Ushbu sonda Osimxon Vositonov chizgan rasmlardan foydalanildi.



Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi,
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi,
«KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy Kengashi,
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga qarashli bo'lmagan Xalqaro xayriya jamg'armasi.

BOSH MUHARRIR:
To'liqin HAYITOV

Dizaynerlar:
Fazliddin SHOYODGOROV,
Olovuddin Oripov
Navbarchilar:
Feruza SOYIBJON qizi,
Yusuf ABDULLAYEV

Gazeta
O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida
0208-raqam
bilan 2007-yil
2-fevralda
ro'yxatdan
o'tgan.

TAHRIR HAY'ATI:
Avaz MARAHIMOV,
Svetlana INOMOVA,
Qahramon QURANBOYEV,
Odina JAMOLDINOVA,
Jabbor RAZZOQOV,
Murtazo SULTONOV,
Feruza JALILOVA
(Bosh muharrir o'rinbosari),
Feruza ADILOVA
(mas'ul kotib),
Dilmurod RAHMATILLAYEV,
Dilshoda DADAJONOVA

Manziliimiz:

Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Indeks: 100129.
Obuna indeksi: 198.
e-mail: tong1924@bk.ru
www.tongyulduzi.uz
Tel: 244-27-25, 244-63-08
Tel/faks:
(99871) 244-38-10

«O'zbekiston»

NMIUda chop etildi.
Tahririyatga kelgan barcha qo'lyozmalar tahrir qilinadi, mualliflarga qaytarilmaydi.
Haftaning dushanba kuni chiqadi. Shakli A-3,
2 bosma taboq.
ISSN 2010-6092
Adadi - 65218
Buyurtma N: J 2119